

## O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI-YOSHLAR QO‘LIDA

**Tolipova Zebuniso Ulugbek qizi**

Andijon davlat chet tillar instituti

E-mail: [tolipovazebuniso814@gmail.com](mailto:tolipovazebuniso814@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Yoshlarimiz bizdan kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart. Prezidentimiz tomonidan aytilgan ushbu fikrlar bejiz emas albatta. Yurtimiz mustaqillikka erishganiga hali ko‘p bo‘lgani yo‘q, shunday bo‘lsada bizning shu qisqa vaqt davomida erishgan muvaffaqiyatlarimiz, yuksak samaradorlikka ega bo‘lgan natijalarimiz, (xar sohada) xatto o‘zining ulkan rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan yirik davlatlarni ham e’tirofiga sazovor bo‘layotgani ayni haqiqat.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, mafkura, g‘oya

Yoshlar — har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma’noda, O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini hisoblanadi. Zero, yangi O‘zbekiston yoshlari kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir. Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani, xususan, Prezident va ijod maktablari tashkil etilayotgani zamirida katta ma’no mujassam.(2) Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o‘quv binolarida ta’lim olayotgan yoshlarning yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlana olamiz.

Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek bizning ana shunday tinch va osuda hayotimizni ko‘ra olmay o‘z yovuz niyatlarini amalga oshirishga, xalqimiz aholisining quvonchiga rahna solishga urinayotgan kimsalarning borligi achinarli hol albatta. Shubhasiz, mamlakat kelajagi biz yoshlar qo‘lida. Buni har bir yosh, tengdoshim teran anglashi, qalban chuqur his etishi zarur, deb o‘ylayman. Barchamizga sir emaski, ana shunday yovuz oqimlar iskanjasiga tushib qolayotgan insonlarning aksariyatini yosh avlod vakillari tashkil etmoqda. Bunday hunuk holatlarning asl sabablaridan biri sifatida ularni o‘z mustaqil fikriga ega emasliklarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Ana shunday ayanchli holatlarning oldini olish va yoshlarimizga ma’naviy va ma’rifiy ozuqa berish maqsadida Milliy istiqbol go‘yasi va ma’naviyat asoslari, odobnoma, vatan tuyg‘usi va shu kabi fanlarning chuqur o‘qitilishi va bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ya’ni yosh avlodni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lishi, vatani, qishlog‘i, oilasi sha’ni va himoyasi uchun yetuk inson bo‘lib voyaga yetishishiga erishish bugungi kunda oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir.

Yoshlarni ezgu niyat ruhida tarbiyalash esa asosan boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan davrdan boshlanadi. Demakki, yoshlarni kelajakda o'z bilim va salohiyati orqali vatan ravnaqi uchun munosib hissalarini qo'shishlariga erishishda boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyos.

O'quvchilarni ruxan faol, axloqiy va ma'naviy yuksak, jismonan yetuk, ishchan qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb talablaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning bilimlar va o'z navbatida ham ma'nan, ham jismonan yetuklik sari qo'ygan boshlang'ich qadam hisoblanadi. Bunda esa unga eng katta ko'makdosh bu sinf raxbari hisoblanadi. O'quvchilarning kelajakda qanday kasbni egallashi, qanday yutuqlarga erishishi, yurt tinchligi va farovonligi uchun o'z hissasini qay darajada qo'sha olishida o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Xozirgi kunda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari zimmasiga yuklanayotgan muhim vazifalardan yana biri bu o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib borishdir. O'zining mustaqil fikriga ega bo'lishi esa xar bir o'quvchini kelajagda o'zining mustaqil yo'lini topib olishi, yuqoridagi kabi turli xil salbiy oqimlar ta'siriga tushib qolmasligi, mustaqil vatan obodligi yo'lida o'z hissasini qo'shishi kerakligi xaqidagi bunyodkor g'oyani onggi-shuuriga singdirib borishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'tiladigan odobnoma, atrofimizdagi olam, vatan tuyg'usi, o'qish kabi fanlar orqali o'quvchining nafaqat bilim balki tafakkurini ham kengaytirib borish, ularni yurtimizning qadriga yetishlari kerakligi, kelajakning egalari ular ekanligi xaqidagi tushunchani singdirish zarur. O'quvchilar fikrini yanada sayqallashtirishda mantiqiy savol-javob o'yinining ham ahamiyati muhumdir.

Bunda o'quvchi mantiqiy fikrlash orqali savollarga javob topishga intilishi, savollar ustida fikr yuritishi orqali o'z ustida ishlashga ham o'rganib boradi, o'quvchini kitob bilan yanada yaqin munosabatini yo'lga qo'yadi.

Barchaga yaxshi ma'lumki, ayniqsa boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilar o'zaro ijobiy raqobatga o'ch bo'ladilar. Shuning uchun mantiqiy savol-javob o'yinini musobaqa tarzida o'tkazish, ularni xarakter va intilishlarini ikki-uch barobarga oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir narsani ta'kidlab o'tish darkor, mantiqiy savollar albatta o'quvchi yoshiga, bilim darajasining yuqoriga siljishiga ta'sir o'tkazarli darajaga munosib bo'lishi lozim. O'z-o'zidan savol tug'iladi: Ularga berish mumkin bo'lgan mantiqiy savol qanday ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.?

Masalan: Daraxt shohida 5 ta qush bor edi. Ovchi ulardan birini miltiq bilan otib tushirdi. Daraxtda nechta qush qoldi.? Ushbu savolga shoshqaloq va yetarli fikrlash doirasiga ega bo'lmaga o'quvchi oddiy matematik xisob-kitobga tayangan holda 4 ta deb javob qaytarishi mumkin, biroq mantiqiy fikrlash qobliyatini yaxshi rivojlangan, mulohaza qilgan xar-bir o'quvchi darhol savolga diqqat bilan e'tibor qaratadi, kerak

bo'lsa o'sha miltiq otilgan vaziyatni ko'z oldiga keltirishga xarakat qiladi va mantiqiy fikriga asoslangan holda miltiq otilgan paytda uning shovqinli ovozi boshqa qushlarni ham o'z joyidan uchib ketishiga sabab bo'lishini topadi. Rad etib bo'lmaydiki, miltiq ovozini eshitgan qolgan qushlar uchib ketadi va daraxtda birorta qush qolmaydi. Shunga o'xshash yana bir savol: Xonada 10 ta sham yonib turibdi. Shu payt ulardan biri o'chib qoldi. Xonada nechta sham qoldi? Bu savolga javob topishda ham o'quvchilardan mantiqiy fikr-mulohaza qilish, shoshqaloqlikka yo'l qo'ymaslik, savolning javobini oddiy matematik usulda emas mantiqiy usulda topishga xarakat qilishlari talab etiladi. Bu kabi mantiqiy savollar javobini topishda asosiy e'tibor ikki narsaga qaratilishi lozimligi o'quvchilarga o'rgatiladi.

1- Savolga diqqat bilan e'tibor qaratish kerakligi va javobni shu savolning ichidan izlab ko'rish lozimligi:

2- Javob topishda savolda aytilayotgan vaziyatni imkoni boricha ko'z oldiga keltirish, va ana shu vaziyatdan kelib chiqqan holda savolga javob izlab ko'rish: Yuqoridagi ikki shartga amal qilgan o'quvchilar oddiy usuldan uzoqlashgan holda javobga shu qadar yaqinlashib boradilar.

Bunday musobaqalar o'quvchilarni nafaqat zehni va zukko qilib tarbiyalashda balki ularning xar qanday vaziyatda o'z fikriga ega bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajak egalari bo'lmish yosh avlodning yanada saloxiyatli, zimmasidagi ma'suliyatni chuqur va te'ran anglay oladigan, Vatan menga nima berdi emas, men vatanga nima berdim degan savolga javob izlaydigan, tarixda yuksak iz qoldirgan ajdodlariga munosib avlod bo'lish, ular kabi xaqiqiy vatanparvar shaxs bo'lib yetishishiga intilishi lozimligi xaqidagi bunyodkor g'oyani chuqur singdirib olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yangilmas kuch. T.: Ma'naviyat-2008-y.
2. <https://xs.uz/uz/post/yangi-ozbekiston-yoshlari-kelazhagimiz-va-istiqbolimiz-pojdevori>.
3. Tarbiya darsligi. 4-sinflar uchun darslik. Toshkent-2020-y.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=o%E2%80%98zbekistonda\\_biz\\_yoshlar\\_kelajagi\\_uchun\\_ulkan\\_ishlar\\_amalga\\_oshirilmoqda\\_%E2%80%93\\_xorijda\\_tahsil\\_olayotgan\\_yoshlar-pOv](https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=o%E2%80%98zbekistonda_biz_yoshlar_kelajagi_uchun_ulkan_ishlar_amalga_oshirilmoqda_%E2%80%93_xorijda_tahsil_olayotgan_yoshlar-pOv)